

ZAMONAVIY YOSHLAR QADRIYATLARI: AN’ANA VA INNOVATSIYA TO‘QNASHUVIDAGI YANGI AVLOD

Zamonaviy yoshlar qadriyatlari bugungi kunda jamiyatning eng ko‘p muhokama qilinadigan mavzularidan biridir. Chunki vaqt shiddat bilan o‘zgarayotgan bir pallada yangi avlodning dunyoqarashi ham o‘ziga xos tarzda shakllanmoqda. Ularga nafaqat zamonaviy texnologiyalar, balki global axborot oqimi, o‘zgarayotgan mehnat bozori, ijtimoiy tarmoqlar va dunyo siyosatidagi jarayonlar ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shunga qaramay, yoshlar faqat “zamonaviylik” timsoli emas, balki an’anaviy qadriyatlar davomchisi sifatida ham ko‘zga tashlanadi. Bu ikki omilning uyg‘unlashuvi esa o‘ziga xos yangi madaniy maydonni shakllantirmoqda.

Bugungi yoshlar shaxsiy erkinlikni yuqori baholaydi. Ular mustaqil qaror qabul qilishni, o‘z hayot yo‘lini o‘zi tanlashni va fikrini ochiq aytishni qadrlaydi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar esa bu jarayonni tezlashtirdi. Har bir yosh hozir butun dunyo bilan bir onda aloqa qilish, o‘zini namoyon etish, yangi narsalarni o‘rganish va dunyoqarashini kengaytirish imkoniyatiga ega. Biroq shu bilan birga, global axborot oqimi ba’zan ularni chalgi‘tadi, ichki bosimni kuchaytiradi, kunlik hayotda yuqori natija kutish holatini shakllantiradi. Bu esa ruhiy charchoq, ikkilanish, o‘ziga ishonchsizlik kabi muammolarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Shunday bo‘lsa-da, yoshlar o‘z oldiga katta maqsadlar qo‘yadi, imkoniyatlardan oqilona foydalanishga intiladi. Bu avlodning kuchli tomoni — tashabbuskorlik, yangilikdan qo‘rqmaslik va o‘z fikriga egalikdir. Yoshlarning ijtimoiy

faolligi ham ortib bormoqda. Ular turli ekologik aksiyalar, ijtimoiy loyihalar, startu-plar, volontyorlik dasturlarida qatnashmoqda. Ular jamiyatga nafaqat tomoshabin, balki faol ishtirokchi sifatida qaraydi. Masalan, ko‘plab yoshlar adolat, tenglik, so‘z erkinligi, ekologik muhofaza kabi masalalarda o‘z pozitsiyasini bildirimoqda, muammolarga befarq bo‘lmaslikka intilmoqda. Bu esa jamiyatda yangi fuqarolik madaniyatining shakllanayotganidan dalolat beradi.

Yoshlar qadriyatlarining yana bir muhim jihati — mehnat bozori haqida yangicha tasavvurga egalikdir. Oldingi avlodlar uchun “barqaror ish joyi” eng katta qadriyat bo‘lgan bo‘lsa, bugungi yoshlar uchun moslashuvchanlik, mustaqil ishlash, kreativlik va kasbini tez-tez yangilab borish tabiiy jarayonga aylangan. Ular freelancing, masofaviy ish, startap madaniyati kabi yo‘nalishlarga ochiq. Bu

esa iqtisodiyotning o‘zgarishiga moslashgan yangi ish madaniyatini yaratmoqda.

Shu o‘rinda jamiyat zimmasiga katta mas’uliyat yuklanadi. Yoshlarni tushunish, ularga imkon yaratish, ularning ovqozini eshitish — bu bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri. Chunki yoshlar faqat kelajak egasi emas, balki hozirning o‘zida jamiyat taraqqiyotining faol ishtirokchisi. Ularning qadriyatlarini izchil shakllantirish uchun oilada mehr, maktabda sifatli ta’lim, jamiyatda esa adolati imkoniyat bo‘lishi zarur. Yoshlar o‘z kelajagini tasavvur qila oladigan, orzusiga erishishi mumkin bo‘lgan muhit yaratilsa, ular an’ana va innovatsiya o‘rtasidagi uyg‘unlikni mukammal ifoda eta oladigan avlodga aylanadi.

Bugungi yoshlar haqida gapirganda ularni tanqid qilishdan ko‘ra, ular bilan suhbatlashish, ularning dunyoqarashini tushunishga harakat qilish ko‘proq samara beradi. Chunki yangi avlod — bu biz orzu qilgan kelajakni yaratishga qodir, fikri teran, tashabbuskor va itniluvchan insonlar. Ularning qadriyatlarida milliy ruh ham, global fikr ham bor. Ana shu ikki kuchning uyg‘unlashuvi esa jamiyatni yanada mustahkam, ma’naviy va innovatsion jihatdan boy qiladigan poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

	Pulat	ADILOV
	Chirchiq	davlat
	pedagogika	universiteti
	Muhandislik	va
K.G.	kafedrası	
	professori	

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘QITISH

Bugungi kunda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayoni keng miqyosda olib borilmoqda. Bu jarayon nafaqat umumta’lim maktablari, balki oliy ta’lim muassasalarida ham yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Xususan, Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishdagi fanlardan biri bo‘lgan “Chizmachilik” fanini o‘qitishda zamonaviy raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ta’lim jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Chizmachilik fani talabalarda fazoviy tasavvur, mantiqiy fikrlash, muhandislik tafakkuri va loyihalash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, bu fanni o‘qitishda an’anaviy usullarni zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish — ta’lim samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. So‘nggi yillarda AutoCAD, FreeCAD, kabi kompyuter grafikasi dasturlari o‘quv jarayoniga keng tatbiq qilinmoqda. Bu dasturlar yordamida talabalar 2D va 3D modellashtrishni o‘rganishlari, murakkab texnik chizmalarni yaratish va ularni real loyihalar bilan bog‘lash imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar. Bunday yondashuv nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali o‘qituvchi va talaba o‘rtasida yangi turdagi hamkorlik shakllanadi. Masalan, interaktiv platformalar yordamida uy vazifalarini elektron shaklda topshirish, avtomatik baholash tizimi orqali natijalarni kuzatish, o‘quv materiallarini video, animatsiya yoki 3D model ko‘rinishida taqdim etish mumkin. Shuningdek, raqamli texnologiyalar aralash ta’lim (blended learning) va masofaviy ta’lim imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa talabalar uchun istalgan joyda, istalgan vaqtda o‘qish, mashg‘ul qilish va yangi bilimlarni egallash sharoitini yaratadi. Ayniqsa, amaliy mashg‘ulotlarda 3D modellashtrish va vizualizatsiya texnologiyalaridan foydalanish talabalarning qiziqishini yanada oshiradi. Raqamli yondashuvning eng muhim afzalliklaridan biri — innovatsion fikrlashni shakllantirishdir. Har bir loyiha, har bir

chizma — bu yangi g‘oya, yangi dizayn. O‘qituvchi esa endilikda faqat bilim beruvchi emas, balki talabaning ijodiy fikrlashini yo‘naltiruvchi maslahatchi rolini bajaradi. Raqamli o‘qitish metodikasini takomillashtirishda quyidagi yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

- Interaktiv dars platformalarini joriy etish — masalan, Moodle, iSpring, Google Classroom kabi tizimlar orqali chizmalari bo‘yicha onlayn mashg‘ulotlar o‘tkazish;
- Virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalaridan foydalanish — 3D modellar yordamida murakkab detallarni vizual o‘rganish;
- Mustaqil ta’limga yo‘naltirilgan topshiriqlarni yaratish — talabalarni o‘z loyihalarini raqamli muhitda ishlab chiqishga undash;
- Baholashning elektron tizimini shakllantirish — test, amaliy topshiriq va loyiha asosida reyting baholash.

Oliy ta’limda chizmachilik fanini raqamli texnologiyalar yordamida o‘qitish ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshiradi. Raqamli texnologiyalarni chizmachilik faniga tatbiq etish, o‘qitish metodikasini takomillashtirish va orqali kelajakdagi muhandis va dizaynerlar nafaqat an’anaviy chizma o‘qish ko‘nikmasiga, balki zamonaviy texnologiyalar yordamida loyiha yaratish salohiyatiga ham ega bo‘ladilar.

Javohir HAYITOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Muhandislik va kompyuter grafikasi” kafedrası o‘qituvchisi

ZAMONAVIY OILA MUNOSABATLARI MAVZUSI

Hozirgi globallashuvning chaqmoqdek tezlashgan zamonda insoniyatning eng qadimiy, eng ishonchli tayanchi bo‘lgan oila institutiga yuklanayotgan mas’uliyat avvalgidan ham ortmoqda. Bugun oilaning vazifasi faqatgina avlodni davom ettirish emas — u madaniyatning qal’asi, shaxsiyati shakllanayotgan yoshning dastlabki maktabi, ijtimoiy refleksiya va muloqot madaniyatining eng muhim maydoniga aylangan. Axborot texnologiyalari hayotimizga keng kirib kelgani sari oila munosabatlarining tabiati ham o‘zgarib bormoqda. Bunday sharoitda yoshlar ongini to‘g‘ri shakllantirish, ularni global madaniyatlar qirdobida o‘zligini yo‘qotmaslikka undash pedagogik jarayonning asosiy vazifasiga aylanmoqda.

Ana shunday murakkab ruhiy-ijtimoiy sharoitda xalq og‘zaki ijodi — ajdodlar donoligini asrlar qa’ridan olib kelayotgan bebaho meros — o‘zining ta’sirchan kuchini yo‘qotgani yo‘q. Aksincha, zamonaviy axborot shovqinida aynan folklor insonga ruhiy tayanch bera oladigan kuchli ma’naviy resursga aylanmoqda. Ota-bobolar hikmatlarini eshitgan bola nafaqat o‘rtasidagi uyg‘unlikni mukammal ifoda eta oladigan avlodga aylanadi. Bugungi yoshlar haqida gapirganda ularni tanqid qilishdan ko‘ra, ular bilan suhbatlashish, ularning dunyoqarashini tushunishga harakat qilish ko‘proq samara beradi. Chunki yangi avlod — bu biz orzu qilgan kelajakni yaratishga qodir, fikri teran, tashabbuskor va itniluvchan insonlar. Ularning qadriyatlarida milliy ruh ham, global fikr ham bor. Ana shu ikki kuchning uyg‘unlashuvi esa jamiyatni yanada mustahkam, ma’naviy va innovatsion jihatdan boy qiladigan poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

sekin qisqarib borayotgandek. Mana shunday pallada xalq og‘zaki ijodi oilaning ruhiy bog‘lovchisi bo‘lib xizmat qiladi. Maqollar — hayotning siqilgan formulasi. Ertaklar — hayotiy donolikning badiiy modeli. Rivoyatlar — xalqning tarixiy xotirasi. “Ota — tog‘, ona — bog‘” kabi hikmatlarda nafaqat oilaning tarkibi, balki uning psixologik mustahkamligi, har bir a’zoning ijtimoiy roli jamlangan. Bugun bu yuksak ma’no chet tili darslarida o‘rgatilganda, o‘quvchi boshqacha fikr yurita boshlaydi: u oila tushunchasini ikki madaniyatda taqqoslaydi, farq va o‘xshashliklarni anglaydi, bu esa lingvomadaniy kompetensiyaning eng muhim ko‘rinishidir. Bugungi kunda chet tilini bilish — bu so‘zlar va grammatikani yodlashdan ancha keng tushuncha. Rivojlangan

mamlakatlar ta’lim tizimida lingvomadaniy kompetensiya:madaniy kodlarni anglash, ijtimoiy me’yorlarni talqin qilish, muloqotning kontekstual mazmunini idrok etish, milliy mentalitetni tushunish sifatida talqin qilinadi. Bu esa lingvomadaniy kompetensiyaning eng yuksak bosqichi — madaniy moslashuv (cultural adaptation) hisoblanadi.

Ammo folklorning ahamiyati faqat milliy qadriyatlarni singdirish bilan cheklanib qolmaydi. Bugungi globallashgan dunyoda xorijiy tilni bilish — zarurat. Ammo tilni bilishning o‘zi kifoya emas; til oridagi madaniyatni tushunish, shu madaniyat bilan muloqot qila olish, o‘zini bunga moslashtirish ham shunchalik muhim. Buni biz lingvomadaniy kompetensiya deb ataymiz.

Tilni o‘rgatish jarayonida folkloridan foydalanish tilning ruhini his qilishga yordam beradi. Masalan, ingliz tilidagi “Every cloud has a silver lining” maqolini o‘rgangan o‘quvchi faqat tarjima emas, balki inglizlar optimizmni qanday ifoda qilishini, hayotga qaysi nigoh bilan qarashlarini ham tushunadi. Shu bilan birga, u o‘z tilidagi “Har bir mushkulda bir hikmat bor” maqoli bilan qiyoslab, ikki xalqning mentalitetini solishtira oladi. Bu esa o‘quvchida madaniyatlararo tahlil, kreativ fikrlash, kontekstual idrok kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Ertaklar va maqollar bilan ishlash chet tili darslarini jonlantiradi, darsni zerikarli

grammatik qoidalardan chiqarib, uni hayotiy, mazmunli va ko‘ngilga yaqin holga keltiradi. Bir tasavvur qiling: o‘quvchilar ingliz tilida “Little Red Riding Hood” ertagini qayta hikoya qiladi, so‘ng uni “Zumrad va Qimmat” bilan taqqoslaydi. Bu jarayon nafaqat til o‘rgatadi, balki ularning tafakkurini kengaytiradi, milliy va jahon madaniyatini solishtirib ko‘rishga imkon yaratadi.

Folklor o‘quvchiga shu haqiqatni eslatadi: har bir xalqning mag‘zi, hayot falsafasi, orzu-umidlari, hayotga munosabati avvalo uning og‘zaki ijodida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun chet tilini o‘rganayotgan yoshlar ingliz, turk, yapon yoki arab xalqining ertak va maqollarini o‘qir ekan, ular nafaqat tilni, balki shu xalqning ruhini ham o‘zlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, xalq og‘zaki ijodi zamonaviy oilaning ma’naviy poydevorini mustahkamlovchi kuch bo‘lsa, chet tili ta’limida esa o‘quvchilarni madaniy jihatdan yetuk, keng dunyoqarashli, madaniyatlararo muloqotga qodir shaxs qilib tarbiyalaydigan samarali vositadir. Folklor milliy o‘zlikni eslatadi, til esa dunyoni kashf qilishga yordam beradi. Bu ikki kuch birlashganda esa yosh avlodning poydevori yanada mustahkam, dunyoqarashi esa yanada keng bo‘ladi.

Shimdt	MURODOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti	Muhandislik
va K.G.	kafedrası
dotsenti.	

Shuningdek, institutda jami 236 nafar o‘qituvchi mehnat qiladi, ulardan 125 nafari ayollardir.Bu ko‘rsatkich ayollarning ilmiy va kasbiy sohadagi rolining yanada kuchayib borayotganidan dalolat beradi hamda kelajakda ta’lim tizimida gender tengligini yanada mustahkamlashga turkib bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, xotin-qizlarning oliy ta’limdagi faol ishtiroki ijtimoiy o‘zgarishlarga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Ular nafaqat o‘z bilimini oshirish, balki jamiyatning turli sohalarida, jumladan madaniyat va san’atda ham faoliyat olib borib, yoshlarni yangi yutuqlarga ilhomlantirmoqda. Bunday muvaffaqiyatlar kelajak avlod uchun yorqin namunalar bo‘lib xizmat qiladi va yoshlarning ilm-fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.Oliy ta’limdagi xotin-qizlarning roli kelajak uchun mustahkam poydevor yaratishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ularning fidoyiligi, intiliishi va iroda kuchi orqali yosh avlodni barkamol inson sifatida tarbiyalashda ko‘plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu bois, oliy ta’limda ayollarning ta’lim olishi va ilmiy faoliyat olib borishi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim sohasida xotin-qizlarning o‘rni nafaqat bilimsizlikdan koli bo‘lmagan jamiyat qurishda, balki ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni asrash va rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ilm-fan va ma’naviyat yo‘lida ular jamiyatimizning yorug‘ kelajagini yaratishda asosiy kuchlardan biri bo‘lib qoladi.

Gulruh BAHODIROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Til vaadabiyoti kafedrası dotsenti v.b., filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

OLIV TA’LIMDA AYOLLARNING ROLI: ILM-FAN VA MA’NAVIVAT YO’LIDA

Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimi yangi intilishlar, zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar asosida rivojlanmoqda. Bu rivojlanishda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan xotin-qizlarning o‘rni beqiyos ahamiyatga ega. Ayollar ilm-fan va ma’naviyat sohasida o‘z hissalarini qo‘shib, jamiyatimizning har tomonlama rivojlanishida muhim rolini egallamoqdalar. Shuni ta’kidlash joizki so‘ngi yillarda mamlakatimizda oliy ta’lim tizimida xotin-qizlarning faolligi sezilarli darajada oshdi. Ayniqsa, gumanitar, ijtimoiy fanlar va tibbiyot yo‘nalishlarida qizlar soni ko‘payib, ular mamlakatning bilim va madaniyat sohasidagi rivojiga ulkan hissa qo‘shmoqda.

Oliy ta’limda ayollarning faolligi nafaqat bilim olishdagi qat’iyati, balki ilm-fan sohasida izlanishlarga, yangi g‘oyalari yaratishga, madaniy va ma’naviy qadriyatlarini saqlashga qaratilgan. Har bir yurt taraqqiyoti ta’limning sifati va yurt vakillarining ilmiy salohiyatiga bog‘liqdir. Shunday ekan, xotin-qizlarning oliy ta’limdagi o‘rni ularning jamiyat barqarorligi va ma’naviy yuksalishidagi tutgan o‘rni bilan belgilanadi.

Bugungi kunda ko‘plab oliy o‘quv yurtlarida xotin-qizlar talabalar va ilmiy xodimlar tarkibida faol qatnashmoqda. Ular nafaqat o‘z sohasida bilimdon mutaxassislar bo‘libgina qolmay, balki jamiyatda ijtimoiy faollik, madaniyat va san’at sohasida ham yetakchi mavqega ega. Bu holat kelajak avlod uchun zamonaviy misollar yaratib, yoshlarni ilm-fan va ma’naviyat yo‘lida

faollikka undaydi. Xususan, Shahrisabz davlat pedagogika institutida talabalarining 80 foizdan oshig‘i xotin-qizlardan iborat bo‘lib, ular ta’lim sifatini oshirishda, ilmiy va ijodiy faoliyatda faol ishtirok etmoqda. Xususan, Institutda jami 9 469 nafar talaba tahsil olmoqda, shundan ayollar soni sezilarli ulushni tashkil etadi. Talabalar tarkibida 4 nafar xorijiy talaba-qiz ham mavjud. Akademik darajaga ega professor-o‘qituvchilar orasida: 28 nafar PhD ilmiy darajali mutaxassis, 6 nafar dotsent, 2 nafar DSc, 1 nafar professor faoliyat yuritmoqda.

Ta’lim yo‘nalishlari kesimida: 9118 nafar bakalavriat talabalari mavjud bo‘lib, ular orasida 7 646 nafar qizlar tahsil oladi (84%). 351 nafar magistrantlik o‘qimoqda, shundan 306 nafari qizlar bo‘lib, bu 87 foizni tashkil etadi.

MAKTAB VA OLIV TA’LIM HAMKORLIGIDA YANGI POG’ONA

Bugun ta’limda muhim bir haqiqatni tan olish vaqti keldi: an’anaviy o‘qitish usullari bilan raqobatlasha olmaydigan zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa 3D texnologiyalar, o‘quvchilarning tafakkuri, tasavvuri va ijodkorligini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti “Muhandislik va kompyuter grafikasi” kafedrası professor o‘qituvchilar hamda talabalari tomonidan maktablar bilan uzviy hamkorlikda 3D printer, lazer texnologiyasi asosida tayyorlanayotgan didaktik modellarning o‘quv jarayonidagi ahamiyati ushbu haqiqatni amaliyotga tadbiq etgan holda, maktablar bilan uzviy hamkorlikda o‘quvchilarga 3D modellari asosida bilim berish tizimini yaratmoqda.

3D Modellar — Tasavvurni rivojlantiradigan innovatsiya bu jarayon shunchaki o‘quv materialini jonlantirish emas. Bu — o‘quvchilarning fazoviy tafakkurini shakllantirish, abstrakt tushunchalarni konkretlashtirish, ijodiy fikr va dizayn ko‘nikmalarini rivojlantirish demakdir. 3D

texnologiyalar orqali endi o‘quvchi molekulani qo‘li bilan aylantirib ko‘rishi, tarixiy obidalarini virtual tarzda qurib chiqishi, geometriya shakllarini xuddi loy kabi yasashi mumkin. Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Muhandislik va kompyuter grafikasi” kafedrası tomonidan ishlab chiqilgan

loyihalar doirasida maktab o‘quvchilari universitet bazasida tashkil etilgan 3D laboratoriyalariga jalb etildi. U yerda ular nafaqat tayyor modellari bilan tanishishdi, balki o‘zlari ham mustaqil 3D loyihalar yaratilayotganiga guvohi bo‘ldi. Bu tajriba shuni ko‘rsatdiki, maktab va oliy ta’lim muassasasi orasidagi uzviy aloqalar o‘quvchining ertangi kundagi yo‘lini aniqlashtirishda muhim omil bo‘la oladi. Universitetning ilmiy salohiyati, laboratoriyalari, professor-o‘qituvchilarning yo‘naltiruvchi roli maktab o‘quvchilari uchun ilhom manbaiga aylanmoqda.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Muhandislik va kompyuter grafikasi” kafedrasining bu boradagi yondashuvi o‘ziga xos: pedagogik yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalarning o‘zlari ham maktablarda amaliy darslar o‘tib, 3D model yaratish bo‘yicha mini-treninglar o‘tkazmoqda. Bu ikki tomonlama foydali tajriba:

talabalar uchun amaliy ko‘nikma, o‘quvchilar uchun esa yangi bilim va motivatsiya bo‘lib xizmat qiladi.

3D texnologiyalar yosh avlodda faqat ilmiy emas, estetik, dizaynerlik va muhandislik tafakkurini ham shakllantiradi. O‘quvchilar o‘zining orzularidagi shaharni loyihalash, maktab maketini qurish yoki texnologik yechimlarni topish orqali o‘z ichki potentsialini kashf etmoqda.

Ushbu tajriba asosida maktablar uchun 3D o‘quv qurollari, hamda onlayn master-klasslar tashkil etish kelinmoqda. Zamon o‘zgarayapti. Bilimga, tafakkurga va ijodga asoslangan avlod esa bugun maktab partasida o‘tiribdi. Ularga qanot berish esa bizning qo‘limizda.

Isroil JUMAYEV,
CHDPD San’atshunoslik fakulteti, Muhandislik va kompyuter grafikasi katta o‘qituvchisi

YANGI O‘ZBEKISTON – TA’LIM ORQALI TARAQQIYOT SARI YO‘L

Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining bosh omili sifatida ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan chuqur va keng qamrovli islohotlar jamiyat e’tiborining asosiy nuqtasiga aylangan. Chunki zamonaviy davrda har qanday davlatning taraqqiyoti uning inson kapitaliga, ya’ni bilim, ko’nikma va intellektual salohiyatga tayangan yosh avlodga bog’liqdir. Sifatli ta’lim — bu faqat bilim olish emas, balki kelajakning ijodkor, tashabbuskor, o’zligiga ishonchli fuqarolarini shakllantirish demakdir.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston — ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi asosida ta’limni insonparvarlik, innovatsiya va raqamlashtirish tamoyillari asosida isloh qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu islohotlar natijasida yosh avlodning tafakkuri, bilim saviyasi va ijodiy salohiyati yuksalib, ular mamlakat taraqqiyotining faol ishtirokchisiga

aylanmoqda. Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimining tub tamoyili — inson kapitaliga katta sarmoya kiritishdir. Bu yo’nalishda davlat tomonidan qator muhim choralar ko’rilmoqda. Maktablarda ta’lim sifati yaxshilanishi uchun zamonaviy o’quv laboratoriyalari yaratilmoqda, IT sinflari kengaymoqda, darsliklarning mazmuni va ko’rinishi

yangilanmoqda. Axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati har bir o’quvchi uchun kengaymoqda. Eng muhimi — ta’lim sohasida mehnat qilayotgan pedagoglarning maqomi va mavqesi tubdan oshirilmogda. O’qituvchilar nafaqat bilim beruvchi, balki jamiyatdagi ijtimoiy o’zgarishlarni boshqaradigan, yoshlarni hayotga tayyorlovchi eng muhim omillardir. Shuning uchun ularning malakasi, intellekti va mashaqqatli mehnati davlat tomonidan yuqori baholanmoqda, izchil qo’llab-quvvatlanmoqda. Zamonaviy texnologiyalar ta’lim jarayonini tubdan o’zgartirmoqda. Elektron ta’lim platformalari, masofaviy o’qitish imkoniyatlari, interaktiv metodologiyalar va STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika) yo’nalishlari yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini, ijodkorligini va muammolarni yechish



BILIM VA JAMIYAT UYG‘UNLIGI – INSON TARAQQIYOTI YO‘LIDA YANGI BOSQICH

Bugungi O‘zbekiston o‘z rivojlanishining yangi, mas’uliyatli bosqichida. Jamiyat hayotining barcha jabhalarida yangilanishlar, islohotlar, intellektual uyg‘onish jarayoni kechmoqda. Ayniqsa, ta’lim tizimida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar mamlakatimiz taraqqiyotining poydevorini mustahkamlamoqda. Ana shunday o‘zgarishlar misolida Samarqand shahrida o‘tkazilgan O‘zbekiston va Yaponiya oliygohlari rektorlarining beshinchi forumi — “Bilim va jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unlik: inson taraqqiyoti va innovatsiyalar yo‘lida fanlararo yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro tadbir — zamonaviy ta’lim falsafasining amaliy ifodasiga aylandi. Tadbirda vazirliklar, Yaponiyadagi 15 dan ziyod va O‘zbekistondan 30 ga yaqin yetakchi oliy ta’lim muassasalari rahbarlari ishtirok etmoqda.

Forumda O‘zbekiston va Yaponiyaning yetakchi oliy ta’lim muassasalari rahbarlari, olimlar va yosh tadqiqotchilar ishtirok etdilar. Unda inson taraqqiyotida bilim, innovatsiya va fanlararo hamkorlikning o’rni haqida chuqur tahliili fikrlar bildirildi. Dunyo shiddat bilan o’zgarayotgan bir paytda, ta’lim bilan jamiyatni bir-biridan ajratib bo’lmaydi. Bugun o’quv jarayonida faqat tor ixtisosga yo’naltirilgan bilim emas, balki fanlararo fikrlash, kreativ yondashuv va muammolarni kompleks hal etish qobiliyati zarur. “Bilim jamiyatdan ajralgan holda qadrsizlanadi, jamiyat esa bilimdan bebahra bo’lsa, taraqqiyotdan orqada qoladi.” So’nggi yillarda mamlakatimizda ta’lim tizimining barcha bo’g’inlarida sifat o’zgarishlari

ro’y bermoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida qabul qilingan “O‘zbekiston 2030 strategiyasi”, “Raqamli O‘zbekiston — 2030” dasturi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan olib borilayotgan islohotlar aynan fanlararo yondashuvni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Xususan, ta’lim jarayonini fan, ishlab chiqarish va innovatsiya bilan integratsiyalash, o’qituvchilar malakasini oshirish, xorijiy tajribalarni joriy etish, talabalar va yosh olimlar uchun xalqaro grantlar, almashinuv dasturlarini kengaytirish, shuningdek, double degree dasturlari orqali O‘zbekiston — Yaponiya qo’shma diplomlarini yo’lga qo’yish — bugungi islohotlarning asosiy yo’nalishlaridir. Shuningdek, zamonaviy pedagog talaba bilan

hamkorlikda o’rganish muhiti yaratadi. U ko’rsatma beruvchi emas, balki yo’l ko’rsatuvchi sifatida namoyon bo’ladi. Bunday yondashuvda talaba tashabbuskor, mustaqil qaror qabul qiluvchi, o’z fikrini asoslab bera oladigan shaxsga aylanishi tabiiy jarayonga aylanadi. Eng muhimi, o’qituvchi o’z faoliyati orqali ilm va axloqni uyg’unlashtirib, yoshlarga nafaqat bilim, balki hayotiy qadriyatlar, ijtimoiy mas’uliyat hissini ham singdirishi kerak. Shu tariqa u kelajak jamiyatining aqliy va ma’naviy poydevorini mustahkamlovchi yetakchi kuchga aylanadi. Pedagog — bu ertangi kunning xaritasini chizuvchi insondir. Uning har bir darsi, har bir so’zi va har bir tashabbusi jamiyat taraqqiyoti sari tashlangan muhim qadamlardan biridir. Shu bois, pedagog sha’ni yuksaltirish, uning mehnatini qadrlash va qo’llab-quvvatlash — har birimizning burchimizdir. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida “bilim va jamiyat uyg’unligi” nafaqat ilmiy, balki falsafiy tushunchadir. Bu g’oya — ta’lim islohotlarining, ijtimoiy yangilanishlarning va inson kapitaliga tayanayotgan milliy strategiyaning asosiy g’oyaviy poydevoriga aylanmoqda. Dildora PO’LATOVA, Shahrisabz davlat pedagogika instituti Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

UZLUKSIZ TA’LIMNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI VA XALQARO TAJRIBA

Uzluksiz ta’lim bugungi globallashuv davrining eng muhim tamoyillaridan biriga aylandi. Inson butun hayoti davomida o’rganishi, o’rganganini yangilab borishi, kasbiy malakasini oshirishi va doimiy rivojlanish uchun qulay sharoit yaratishi zarur bo’lgan bu davrda ta’limning an’anaviy chegaralari tobora kengayib bormoqda. Uzluksiz ta’lim nafaqat bilim olish imkoniyati, balki jamiyatning intellektual salohiyatini oshiruvchi strategik resurs sifatida qarayalapti. Uning nazariy asoslari insonning butun hayot davomida intellektual, madaniy va kasbiy rivojlanishini qo’llab-quvvatlaydigan yondashuvlarga tayanadi. Bu g’oya o’z mohiyatida shaxsning o’zini anglash, xorij kompetensiyalar egallash va mehnat bozorida o’zgarishlarga moslashish kabi jarayonlarni o’z ichiga oladi. Shu bois uzluksiz ta’lim inson hayotining har bir bosqichiga — maktabgacha tarbiyadan tortib katta yoshdagi fuqarolarning qayta tayyorlanishigacha — uzviy bog’langan tizim sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda uzluksiz ta’limning metodik asoslari ham sezilarli darajada yangilandi.

O‘zbekiston ham so’nggi yillarda uzluksiz ta’lim konsepsiyasini izchil rivojlantirib kelmogda. Raqamli ta’lim platformalari, masofaviy o’qitish tizimlari, pedagoglarning malakasini oshirish uchun onlayn kurslar, xalqaro ta’lim platformalari bilan hamkorlik — bularning barchasi uzluksiz ta’lim uchun yangi eshiklarni ochmoqda. Ziyonet, my.edu.uz, Milliy ta’lim portali, oliy ta’lim muassasalarining LMS tizimlari orqali darsliklar, videodarslar, testlar va amaliy topshiriqlar keng ommaga taqdim etilmoqda. O’quv jarayonining raqamlashtirilishi qishloq va shahar o’rtasidagi ta’lim imkoniyatlari farqini qisqartirishga, yoshlarning global bilim makoniga kirishini osonlashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, o’qituvchilar uchun yaratilayotgan masofaviy malaka oshirish platformalari ularga o’z ustida ishlash, yangi metodikalarni o’zlashtirish va xalqaro tajriba bilan tanishish imkonini bermoqda.

Jahon tajribasi shuni ko’rsatadiki, uzluksiz ta’lim jamiyat taraqqiyotining asosiy omiliga aylanmoqda. Texnologiyalar tez o’zgarigan bir davrda insonning bilimga bo’lgan ehtiyoji ham uzluksiz davom etadi. Bugun o’qishni to’xtatish — ertaga raqobatdan ortda qolish demakdir. Shu sabab, davlatlar ham, ta’lim muassasalari ham, eng muhimi, o’quvchilarning o’zlari ham doimiy o’rganish madaniyatini shakllantirishga intilmoqda. Uzluksiz ta’lim nafaqat kasbiy rivojlanish, balki shaxsiy o’sish, ijtimoiy faollik, intellektual yetuklik va ma’naviy kamolotning poydevori sifatida zamonaviy hayotda tobora mustahkam o’rin egallamoqda. O‘zbekiston ham global ta’lim makonidagi o’zgarishlarni izchil kuzatar ekan, milliy ta’lim tizimida innovation metodlar, raqamli yechimlar va ilg’or pedagogik tajribalarni joriy etishda davom etmoqda. Natijada, uzluksiz ta’lim — faqat ta’lim tizimining bir bo’lagi emas, balki jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta’minlaydigan umumiy madaniyatga aylanib bormoqda. Uzluksiz ta’limning bugungi zamonaviy bosqichi raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog’liq bo’lib, aynan raqamli platformalar uning eng kuchli harakatlantiruvchi mexanizmlaridan biriga aylandi. Coursera, EdX, Khan Academy, Udemu kabi xalqaro ta’lim xizmatlari geografik masofa, iqtisodiy imkoniyat yoki ijtimoiy sharoitlardan

qat’i nazar, istalgan kishiga sifatli bilim olish imkonini bermoqda. AQSh, Buyuk Britaniya, Singapur singari mamlakatlar raqamli ta’limni davlat siyosati darajasiga ko’targan holda o’z milliy raqamli ta’lim ekotizimlarini yaratdi. Bu tizimlar orqali aholining barcha qatlamlari uchun moslashtirilgan, ochiq va qulay o’quv muhiti ta’minlanmoqda. O‘zbekiston tajribasida ham uzluksiz ta’limni raqamlashtirish ustuvor yo’nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda. My.edu.uz, Ziyonet, UzEdu platformalari, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining o’z elektron ta’lim tizimlari (LMS) orqali dars materiallari, videoma’ruzalar, testlar va amaliy topshiriqlar raqamli shaklda taqdim etilmoqda. Maktabgacha ta’limdan tortib malaka oshirish tizimigacha bo’lgan barcha bosqichlarda masofaviy o’qitish imkoniyatlari kengayib, o’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi muloqot yanada interaktiv tus olmoqda. Shuningdek, O‘zbekistonning xalqaro platformalar bilan hamkorlik qilishi, xorijiy kurslarni mahalliy tizimga moslashtirishi raqamli uzluksiz ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu tariqa, uzluksiz ta’limning xalqaro va mahalliy tajribasi shuni ko’rsatadiki, raqamli vositalar ta’limni yanada ochiq, moslashuvchan va har kim uchun qulay shaklga aylantirmoqda. Eng muhimi, bu jarayon insonning o’zini rivojlantirish imkoniyatlarini cheklanmas darajada kengaytirib, zamonaviy jamiyatda doimiy o’rganish madaniyatini shakllantirmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, uzluksiz ta’limning rivoji nafaqat bilim olish imkoniyatini kengaytiradi, balki davlatning iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy farovonligini ta’minlovchi omilga aylanadi. Zamonaviy mehnat bozori doimiy o’zgarib borayotgan davrda yangi kasblar paydo bo’lmoqda, eskilari esa o’z ahamiyatini yo’qotmoqda. Bu esa har bir insondan moslashuvchanlikni, yangilikka ochiqlikni va muntazam rivojlanishni talab qiladi. Uzluksiz ta’lim aynan shu ehtiyojni qondiradi: u odamga istalgan vaqtda kasbini yangilash, yangi ko’nikma va kompetensiyalar egallash, raqobatbardosh bo’lib qolish imkonini beradi. Nargiza QAYUMOVA, Shahrisabz davlat pedagogika instituti Xorijiy til nazariyasi va amaliyoti kafedras o’qituvchisi

YOSHLAR QADRIYATLARI – YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING STRATEGIK OMILI

Bugungi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim omillaridan biri yosh avlodning qadriyatlar tizimi bilan bevosita bog’liqdir. Chunki har qanday davlatning uzoq muddatli rivoji, siyosiy barqarorligi va ijtimoiy uyg‘unligi jamiyatda qanday qadriyatlar ustuvor bo’lishiga bog’liq. Shu ma’noda, yoshlar qadriyatlari O‘zbekistonning zamonaviy rivojlanish strategiyalarida alohida e’tibor markaziga qo’yilmoqda.

So’nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi hamda uning mantiqiy davomi sifatida qabul qilingan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi yoshlar masalasini davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida belgiladi. Ushbu strategik

hujjatlarda yoshlarning ma’naviy, intellektual va ijtimoiy salohiyatini rivojlantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, siyosiy ongli fuqarolar sifatida tarbiyalash asosiy vazifa sifatida qayd etilgan. Zamonaviy yoshlar qadriyatlarida shaxsiy erkinlik, adolat va imkoniyatlar tengligi muhim o’rin egallaydi. Biroq

O‘zbekiston taraqqiyot modelida bu qadriyatlar mutlaq individualizm shaklida emas, balki qonun ustuvorligi, jamiyat manfaatlari va ijtimoiy mas’uliyat bilan uyg’un holda talqin etiladi. Davlat siyosatining asosiy maqsadi yoshlarning erkin fikrlashi bilan birga, ularning jamiyat oldidagi burchini anglashiga erishishdir. Bu esa siyosiy diskursda “erkinlik va mas’uliyat birligi” tamoyilining amaliy ifodasidir. Globallashuv va raqamlashtirish sharoitida axborot makoni yoshlar qadriyatlarini shakllantiruvchi muhim omilga aylandi. Shu bois O‘zbekiston rivojlanish strategiyalarida axborot xavfsizligi, tanqidiy fikrlash va mafkuraviy barqarorlik masalalariga alohida urg’u

berilmoqda. Yoshlar ongida milliy qadriyatlar — Vatanga sadoqat, davlat ramzlariga hurmat, tarixiy xotira va ona tiliga e’tibor — siyosiy barqarorlikni ta’minlovchi asosiy tayanch sifatida qaralmoqda. Bu qadriyatlar yoshlarni global jarayonlar fonida o’z milliy o’zligini saqlab qolishga xizmat qiladi. Oila instituti yoshlar qadriyatlarining shakllanishida muhim siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. O‘zbekiston taraqqiyot strategiyalarida oilani mustahkamlash, sog’lom ma’naviy muhit yaratish yoshlar siyosatining ajralmas qismi sifatida belgilangan. Oila orqali yoshlarda hurmat, mas’uliyat, mehnatsevarlik va sadoqat kabi qadriyatlar shakllanadi. Bu esa jamiyat barqarorligi va davlat rivojining ijtimoiy poydevorini

mustahkamlaydi. Ta’lim tizimi yoshlar qadriyatlarini shakllantirishda yetakchi strategik institut hisoblanadi. So’nggi yillarda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar — ta’lim sifatini oshirish, xorijiy tillarni o’rganishni rivojlantirish, raqamli kompetensiyalarni kuchaytirish — yoshlarni zamonaviy bilimlarga ega, siyosiy ongli va raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlashga qaratilgan. Ta’lim siyosati yoshlarning nafaqat kasbiy, balki fuqarolik qadriyatlarini shakllantirishga ham xizmat qilmoqda. Yoshlarning ijtimoiy faolligi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyalarining muhim natijalaridan biri sifatida namoyon bo’lmoqda. Volontyorlik, jamoatchilik

tashabbuslari, ekologik harakatlar va ijtimoiy loyihalarda yoshlarning faol ishtiroki ularning qadriyatlar tizimida adolat, ijtimoiy mas’uliyat va hamjihatlik kabi tamoyillar mustahkamlanayotganini ko’rsatadi. Bu holat fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Mehnatga munosabat ham yoshlar qadriyatlarining siyosiy-iqtisodiy jihatini belgilaydi. O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanish strategiyalarida yoshlar bandligini ta’minlash, tadbirkorlik va innovatsiyalarni qo’llab-quvvatlash muhim o’rin tutadi. Bugungi yoshlar mehnatni shaxsiy muvaffaqiyat bilan birga, davlat taraqqiyotiga hissa qo’shish vositasi sifatida anglamoqda.

Halollik, professionalizm va tashabbuskorlik yoshlar mehnat madaniyatining asosiy qadriyatlariga aylanmoqda. Xulosa qilib aytganda, yoshlar qadriyatlari O‘zbekistonning rivojlanish strategiyalarida markaziy o’rin egallaydi. Milliy qadriyatlar, siyosiy ong va zamonaviy tafakkur uyg’unlashgan holda shakllanayotgan ushbu tizim davlat barqarorligi va jamiyat taraqqiyotining muhim resursidir. Yoshlarni qadriyatlarga tayangan holda qo’llab-quvvatlash, ularning salohiyatini ro’yobga chiqarish — Yangi O‘zbekistonda barpo etish yo’lidagi eng muhim strategik vazifalardan biridir.

Guzal SHODIYEVA, Shahrisabz davlat pedagogika instituti Xorijiy til nazariyasi va amaliyoti kafedras o’qituvchisi